# Alisher Navoiy
# (1441-1501)
# Hayoti va ijodi



Fan- O‘zbek tili
O‘qituvchi- Kamaliddinova Nigora Sirajiddinovna

REJA:

1. Alisher Navoiy hayoti
2. Alisher Navoiy ijodi va faoliyati
3. Alisher Navoiyning ruboiy va hikmatli so‘zlari
4. Topshiriqlar ustida ishlash

- Alisher Navoiy (asl ismi Nizomiddin Mir Alisher) 1441-yil 9-fevralda Hirotda temuriylar xonadonining yaqinlaridan biri bo‘lgan G‘iyosiddin Bahodir oilasida dunyoga kelgan. Alisher Navoiy temuriyzoda, bo‘lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan. 4 yoshida maktabga borib, tez savod chiqargan, turkiy va forsiy tildagi she’rlarni o‘qib, yod ola boshlagan. U 10-12 yoshlaridayoq ilk she’rlari bilan ko‘pchilikning diqqatini o‘ziga jalb etadi.






- Alisher Navoiy ikki tilda: turkiy (o‘zbek tili) va forsiy tillarda g‘azallar yozgan. Lekin turkiy tilda buyuk asar yaratish hayotdagi asosiy maqsadi bo‘lgan. Ijodining chuqur mazmuni va badiiy qudrati bilan uni jahondagi buyuk shoirlar qatoriga qo‘shish mumkin.

- «Xamsa» Alisher Navoiyning shoh asari bo‘lib, besh dostondan iborat. Shoir forsiy tildagi g‘azallariga «Foniy» taxallusini qo‘ygan va ularni jamlab «Devoni Foniy» tuzgan.



- Alisher Navoiy Husayn Boyqaro saroyida davlat ishlarini ham olib borgan. Muhrdor, so‘ngra bosh vazir bo‘lganida mamlakatni obodonlashtirish, xalq hayotini farovon etish, oddiy mehnatkashlardan olinadigan soliqlarni kamaytirishga alohida ahamiyat berdi, ariqlar qazdirdi, masjid va madrasalar, shifoxonalar, kutubxonalar qurdirdi. Xalqning turmushini yaxshilash, beklar va amaldorlarning o‘zboshimchaligiga chek qo‘yishga harakat qildi.

- Alisher Navoiy xalq orasida katta obro‘ qozondi. U davlat ishlari bilan juda band bo‘lgan vaqtlarida ham hech qachon ijod qilishdan to‘xtamagan.
- Alisher Navoiy o‘zining o‘lmas asarlari orqali o‘zbek tilining go‘zalligini, boyligini va qudratini olamga namoyish etdi.
- O‘zbek xalqining buyuk mutafakkiri, o‘zbek adabiyotini jahonga tanitgan va avlodlarga boy adabiy meros qoldirgan shoir 1501-yil 3-yanvarda Hirotda vafot etgan.



## Lug’at

| | |
|---|---|
| **favqulodda –** чрезвычайный | **taxallus -** псевдоним |
| **iste’dodli -**талантливый | **badiiy qudrat** – художественная сила |
| **namoyon bo‘lmoq –** проявляться | **soliq** - налог |
| | **jamlangan** – собранный |
| **jalb etmoq –** привлекать | **adabiy meros** – литературное |
| **bayt -** двустишие | наследие |

## Bilib oling!

*Ruboiy* to‘rtlik, ya’ni to‘rt misra (qator)dan iborat bo‘ladigan, ta’limiy-tarbiyaviy mavzuda yoziladigan she’riy asardir.

# Alisher Navoiyning ruboiylari va hikmatli so‘zlari

**G‘urbatda g‘arib shodumon bo‘lmas emish,**
**El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.**
**Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,**
**Bulbulg‘a tikondek oshiyon bo‘lmas emish.**

**Ista ato yo‘lida fido jon qilmoq,**
**Qulluq anoga ham ulcha imkon qilmoq,**
**Zuhri abad istasang farovon qilmoq,**
**Bil oni ato-anog‘a ehson qilmoq.**

**Boshni fido qilg‘il ato boshig‘a,**
**Jismni qil sadqa ano qoshig‘a.**
**Tun-kuningga aylagali nurposh,**
**Birisin oy angla, birisin quyosh.**

*******

**Onalarning ayog‘i ostidadur**

**Ravzayi jannat-u jinon bog‘i.**

**Ravza bog‘i visolin istar esang,**

**Bo‘l onaning ayog‘i tufrog‘i.**



| **Lug‘at** | |
|---|---|
| **hikmatli so‘zlar** – изречения, афоризмы | **g‘arib** - одинокий; скиталец |
| **g‘urbat** – чужбина | **ravza** - райские сады |
| **oshiyon** - семейный очаг | **qulluq** - поклон, благодарить |
| **shodumon** – весёлый<br><br>**hikmatli so‘zlar** – изречения, афоризмы | **ehson** - доброе дело; милость<br><br>**farovon** - изобильный, благополучный |
| | |



## Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

- O‘zbekistonning tashqi aloqalari va xalqaro hamjamiyatdagi o‘rni haqida so‘zlab bering.
- Respublikamizning davlat tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo‘nalishlari haqida ma’lumot bering.
- Nima uchun Alisher Navoiyni buyuk mutafakkir deb ataymiz?
- Daftaringizga BBB jadvalini chizing. Mavzu bo‘yicha nimalarni bilib olganingiz va nimalarni bilmoqchiligingizni yozing.

| **Bilar edim** | **Bilib oldim** | **Bilmoqchiman** |
|---|---|---|
| | | |

# ALISHER NAVOIYNING BUYUK ASARLARI



ACADEMIC IHT LYCEUM

TIIAME

# Alisher Navoiyning haykallari



Moskva



Samarqand



Toshkent

Navoiy



1991 yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi tantanali nishonlandi. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta’sis etildi. Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i barpo etildi va bu bog‘ o‘rtasida shoirning salobatli haykali qad ko‘tardi. Shoirning 20 jildli mukammal asarlar to‘plami nashr etildi. Mamlakatimizda Alisher Navoiy xotirasi yuksak darajada e’zozlanadi. Bir viloyat, shahar, oliy o‘quv yurti (Samarqand davlat universiteti), Toshkentdagi Davlat kutubxonasi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti.

ACADEMIC IHT LYCEUM

TIIAME
















**Uyga vazifa.** Krossvordni yeching.



**1.**“U saroyda bosh *vazir bo’lib ko’pgina* xalqparvarlik siyosatini amalga oshirishga urindi… Shaharlarni obod qildirdi, ariqlar qazdirdi, shifoxonalar, kutubxonalar qurdirdi.” Savol: Gap kim haqida bormoqda? **2.** Alisher Navoiyning *“Panj ganj”* nomi bilan mashhur *bo’lgan* birinchi asari? **3.** Biz bilamizki Navoiydan ilgari ham xamsanavislar *bo’lgan*. Shu xamsanavis allomalardan birining ismi? **4.** Alisher Navoiyning *“Xamsa”si* boshqalardan farqli ravishda muallifning ona tilisida yozildi. Savol: Gap qaysi til haqida ketmoqda? **5.** *“Xamsa”ning* bu dostoni ishqiy-sarguzasht xarakteridadir. Hajmi 5782 baytdan iborat. Aruzning hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Savol: Bu qaysi doston? *“Farhod va .....”* **6.** *“Layli va Majnun’* dostonidagi Laylining otasi Qaysni nima deb ataydi va qizini unga berishga rozi *bo’lmaydi?* **7.** Ishqiy sarguzasht *bo’lmish “Sab’ai* sayyor dostonidagi Bahrom qaysi nomi bilan mashhur? **8.** Bu *so’zni* eshitganda *ko’z* oldimizga, yemoqlik, ichmoqlik, kiymoqlikdan tashqari yana johillik, ilmsizlik, manmanlik, *ko’rolmaslik,* baxillik, mansabparaslik, inson ruhini, qalbini *bug’laydigan,* uni Ollohdan uzoqlashtiradigan barcha illatlar *yig’indisi* keladi. Savol: Gap nima haqida ketmoqda? **9.** Musulmon olamida keng tarqlagan islom diniga asoslanuvchi buyuk *ta’limot* nomi? **10.** Misralarni davom ettiring. *“Dedi: Qaydinsen, ey majnuni gumrah?!”* Dedi: *“Majnun ..... qayda ogah?”.* **11.** *So’z,* nutq kabi *so’zlarni* anglatuvchi *so’z?* **12.** *“Farhod va Shirin”* dostoni Navoiygacha qaysi shaklda mashhur edi? *“Xusrav va .....”***13.** *“Xamsa”ning* ilk dostoni? “..... ul-*Abror”*

E‘tiboringiz uchun rahmat!